



## Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi

### Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

2022- yil yanvar-mart (dastlabki ma'lumot)

(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)

Joriy yilning yanvar-mart oylarida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda (qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari), ishlovchilarning o'rtacha nominal hisoblangan ish haqi 2 662,2 ming so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **17,0 %** ga oshdi.

O'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilingan xodimlar soni 2661 ta korxonalar va tashkilotlarda 228,4 ming nafarni tashkil qildi.

### O'tgan yilning mos davriga nisbatan asosiy mehnat

#### ko'rsatkichlarining o'zgarishi, foizda

(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

#### Korxonalar va tashkilotlar soni

102,4 %



#### Xodimlar soni

104,4 %



#### Ish haqi fondi

126,5%



#### O'rtacha ish haqi


117,0 %






## Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining sohalar kesimida taqsimlanishi



### Qurilish

Qurilish sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **3 510,2** ming so'mni tashkil etib bu ko'rsatkich Chiroqchi tumanida **6 334,7** (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **(180,5%)**), Qarshi shahrida **3 805,0** ming so'mni (**108,4%**) yani yuqori miqdorni tashkil etgan bo'lsa, Yakkabog' tumanida **2 020,7** ming so'mni (**57,6%**)ni tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.




### Sanoat

Sanoat sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **4 350,5** ming so'mni tashkil etib, bu ko'rsatkich Nishon tumanida **7 546,8** ming so'mni viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan (**173,5 %**), G'uzor tumanida **6 586,5** ming so'mni (**151,4%**), Muborak tumanida **5 248,5** ming so'mni (**120,6%**), ya'ni yuqori miqdorni tashkil etgan bo'lsa, Shahrisabz shahrida **2 195,7** ming so'mni (**50,5 %**), Mirishkor tumanida **2 190,8** ming so'mni, (**50,4%**), tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqdalar.

### Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida


O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **1 904,4** ming so'mni tashkil etib, bu ko'rsatkich Qarshi shahrida **2 425,9** ming so'mni viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan (**127,4%**) ni Chiroqchi tumanida **2 408,5** ming so'mni (**126,5%**), Yakkabog' tumanida **2335,1** ming so'mni (**122,6 %**), Muborak tumanida **2 151,7** ming so'mni (**113,0%**) tashkil etgan bo'lsa, Qarshi tumanida **1 405,6** ming so'mni (**73,8%**), G'uzor tumanida **1 233,0** ming so'mni (**64,7%**), Nishon tumanida **1 164,3** ming so'mni (**61,1%**), tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqdalar.






### Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati

Ushbu sohada o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **6 070,9** ming so'mni tashkil etib, bu ko'rsatkich Shahrissabz tumanida **10674,9** ming so'mni viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan (175,8%), Qarshi shahrida **5 825,7** ming so'mni (96,0%) yani yuqori miqdorni tashkil etgan bo'lsa, Mirishkor tumanida **850,0** ming so'mni (14,0%) tashkil etib boshqa hududlarga nisbatan eng kam miqdorni tashkil etmoqda.



### Tashish va saqlash

Tashish va saqlash sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **3 803,5** ming so'mni tashkil etib bu ko'rsatkich, Muborak tumanida **8 257,0** ming so'mni viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan (**214,1%**) ni yuqori miqdorni tashkil etgan bo'lsa, Qarshi tumanida **890,3** ming so'mni (**23,4%**) ni tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqdalar.







## Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi

### Ta'lim sohasida

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **2 215,7** ming so'mni tashkil etib bu ko'rsatkich, Qarshi shahrida **3 189,7** ming so'mni viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan (**144,0%**), Shahrisabz shahrida **2 424,8** ming so'mni. (**109,4%**) tashkil etgan bo'lsa, G'uzor tumanida **1 999,8** ming so'mni (90,3%), Kasbi tumanida **1 973,0** ming so'mni (**89,0%**) ni tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega.



### Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatdagi ish haqiga nisbatan o'zgarishi % da



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat tumanlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Qarshi shahrida **3 611,6** ming so'mni (**135,7%**), G'uzor tumanida **3 015,9** ming so'mni viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan (**113,3%**), Muborak tumanida **3 451,3** ming so'mni (**129,6%**) ni tashkil etgan bo'lsa, Mirishkor tumanida **2 049,6** ming so'mni (**77,0%**) ni tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.



### Ma'lumot uchun:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.08.2021-yildagi «Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida»gi PF-6279-sonli Farmoniiga muvofiq, joriy yilning 1- sentabridan boshlab mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori **822 000** so'mni tashkil etadi.

"O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi" ko'rsatkichi iqtisodiyotda ish haqini baholashning uslubiy qoidalariga va xalqaro tavsiyalarga muvofiq, muayyan vaqt (soat, oy, yil) davomida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar) evaziga ish beruvchilar tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda, soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yo'llanma xodimlarning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxslarga pul shaklida hisoblangan daromadlardan aniqlanadi.



### Hududlar kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)

	<b>2021- yil yanvar-mart</b>	<b>2022- yil yanvar-mart</b>	<b>O'sish sur'ati, %</b>
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>2 274,9</b>	<b>2 662,2</b>	<b>117,0</b>
Qarshi sh.	2 952,4	3 611,6	122,3
Shahrisabz sh.	2 025,2	2 113,9	104,4
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	2 982,1	3 015,9	101,1
Dehqonobod	1 981,8	2 316,2	116,9
Qamashi	1 764,2	2 056,8	116,6
Qarshi	1 753,7	2 060,7	117,5
Koson	1 967,3	2 218,3	112,8
Kitob	1 764,6	2 086,2	118,2
Mirishkor	1 886,1	2 049,6	108,7
Muborak	2 918,5	3 451,3	118,3
Nishon	2 134,5	2 693,6	126,2
Kasbi	1 731,3	2 186,2	126,3
Chiroqchi	1 946,0	2 321,9	119,3
Shahrisabz	1 921,1	2 268,4	118,1
Yakkabog'	1 687,8	2 174,4	125,5



## Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi

### O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi

(Qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, ming so'm)

	2021- yil yanvar-mart	2022- yil yanvar-mart	O'sish sur'ati, %da
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>2 274,9</b>	<b>2 662,2</b>	<b>117,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Sanoat	3 476,6	4 350,5	125,1
Qurilish	2 620,7	3 510,2	133,9
Savdo	2 039,6	2 003,0	98,2
Tashish va saqlash	3 474,1	3 803,5	109,5
Axborot va aloqa	2 947,6	3 514,0	119,2
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	5 281,7	6 070,9	114,9
Ta'lim	1 970,3	2 215,7	112,5
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1 675,2	1 904,4	113,7
Boshqa faoliyat turlari	2 351,4	2 966,6	126,2

